

## **“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki, bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi to‘g‘risida xabar beradi**

### **Hurmatli aksiyadorlar!**

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2018 yilning 12 oktyabr kuni “Kapitalbank” ATBning Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy manzili bo‘yicha joylashgan Bosh ofisida o‘tkaziladi, elektron manzil: [info@kapitalbank.uz](mailto:info@kapitalbank.uz), veb sayt: [www.kapitalbank.uz](http://www.kapitalbank.uz)

Ro‘yxatga olishning boshlanishi – **soat 10.30 da.**

Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi boshlanadigan vaqti - **soat 11.00 da.**

Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida ishtirok etishga haqli bank aksiyadorlarining reyestrini tuzish sanasi – **2018 yil 8 oktyabr.**

### **Kun tartibi:**

1. “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida.
2. O‘zbekiston Respublikasi qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish Markazi tarafidan 15.09.2018 yilda R0314-16-son bilan ro‘yxatga olingan, bankning nominal qiymati 950 so‘mdan bo‘lgan 15 179 000 dona miqdoridagi oddiy nomlangan hujjatsiz aksiyalarining qo‘shimcha chiqarilishini joylashtirish yakunlarini tasdiqlash to‘g‘risida.
3. Bankning ilgari joylashtirilgan aksiyalariga qo‘shimcha ravishda bank joylashtirishga haqli bo‘lgan e‘lon qilingan aksiyalarning miqdori va turini belgilash to‘g‘risida.
4. Bankning Ustav kapitalini ko‘paytirish to‘g‘risidagi qarorni qabul qilish va tasdiqlash huquqlarini Bank kengashiga berish to‘g‘risida.
5. Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida.
6. Aksiyadorlarning 27.06.2018 yildagi Yillik umumiy yig‘ilishining 15- masala bo‘yicha qabul qilgan qarorni bekor qilish hamda 2018 moliyaviy yilga auditorlik tashkilotini va uning xizmatlariga to‘lanadigan haqning eng ko‘p miqdorini belgilash to‘g‘risida.
7. “Kapitalbank” ATBning ilgari joylashtirilgan aksiyalarini qayta sotib olish to‘g‘risida.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishiga tayyorlangan materiallar bilan “Kapitalbank” ATBning Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy manzili bo‘yicha joylashgan Bosh ofisida, 3-qavatdagi 36-xonada tanishish mumkin.

**Eslatma:** Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida aksiyadorning vakili yozma shaklda tuzilgan, vakil to‘g‘risidagi ma‘lumotlar (ismi yoki nomi, istiqomat qiladigan yoki joylashgan joyi, pasport ma‘lumotlari) ko‘rsatilgan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun berilgan ishonchnoma notarial tasdiqlangan bo‘lishi, yuridik shaxs nomidan berilgan ishonchnoma esa qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.